

Uzbekistan Airways Jeju Air aviakompaniyasi bilan interline shartnoma imzoladi

2024 4 Aprel

Uzbekistan Airways Jeju Air aviakompaniyasi bilan Incheon xalqaro aeroporti (Seul) orqali quyidagi bir nechta yo'nalishlarga tranzit sayohat qilish imkonini beruvchi interline shartnoma tuzdi:

- Yaponiyaga - Tokio, Osaka, Fukuoka, Nagoya, Okinava, Matsuyama, Sapporo, Oita, Shizuoka, Xirosima;
- Xitoyga - Jiamusi, Shijiazhuan, Veyxay, Xarbin, Yanzi, Yantai, Sindao, Gongkong, Makao, shuningdek Tayvan poytaxti Taypey;
- Janubiy Koreyaga - Jeju, Busan, Kvanju, Suncheon;
- Filippinga - Manila.

Interline/SPA shartnomasi bo'yicha aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida xarid qilish mumkin. Savollaringiz bo'lsa, info@uzairways.com manziliga murojaat qilishingizni tavsiya etamiz.